

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Usmanov Esanbay Shirmatovich

Angren Universiteti “Pedagogika
va psixologiya” kafedrası, dotsent
v.b.psixologiya fanlari nomzodi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda jamiyatda oilaviy nizolarning soni ortib borayotganligining sabablardan biri sifatida yoshlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini yetarli darajada shakllanmaganligini keltirish mumkin. Ushbu maqolada yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash muammosi bayon qilingan. Oila haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga oid sharq mutafakkirlarining qarashlari va zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, oila borasidagi ijtimoiy- psixologik masalalar muhokama qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** oila, qadriyat, oilaga tayyorlash, jamiyat, oila psixologiyasi.*

“Hamma narsa niyatga bog‘liq deydi”, - dono xalqimiz. Mustaqil oilaviy hayot ostonasida turgan har bir inson, u yigit bo‘ladimi yoki qizmi, eng avvalo ona sutidek halol va pok bo‘lishiga o‘rganishi lozim. Zero, har bir niyatning orqasida aniq mo‘ljallar va maqsadlar bo‘lganidek, inson uchun baxtli oila qurish, unda baxtiyor umrguzaronlik qilish uchun ham er va xotin o‘z oldilariga bahamjihat orzu va muddaolar qo‘yishni, yaxshi niyatlar bilan oilani manaviy, ijtimoiy iqtisodiy jihatdan rejalashtirishni bilishlari kerak.

Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 62 foizini bolalar o‘smirlar, 30 yoshgacha bo‘lgan yigit qizlar, ularning ma‘lum qismini esa yosh oilalar tashkil etadi. Yosh oilalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy yangilanishi va yuksalishini muhim sub’ektlaridan bo‘lib, ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan murakkab jarayonlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazishda va taraqqiyotni harakatda keltirishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Shuning uchun hozirgi vaqtda yosh oilalarning ma‘naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishni chuqur va atroflicha tahlil etish ilmiy -amaliy jihatdan

katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan mustahkam oilalarni shakllantirish, onalik va bolalikni ijtimoiy jihatdan muxofaza qilish, oilalarda jismonan sog‘lom, ruxan baquvvat bo‘lgan farzandlarning dunyoga kelishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, samarali ravishda oila tarbiyasini tashkil etish jarayonida oilalar bilan jamoatchilik o‘rtasida mustahkam hamkorlikni yuzaga keltirish masalalarini davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda.

Oila deb atalmish muqaddas makon - “Oila qasri”ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo‘lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qay darajada mustahkam qo‘yilishiga bog‘liq. Nikoh oldi omillari oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga qay darajada tayyor ekanliklarini belgilab beradi. Inson o‘zini oilaviy hayotga tayyorman deyishi uchun eng avvalo nikohning talablariga javob berishi kerak. Nikohning birinchi talabi jinsiy yetuklik hisoblanib, erkak va ayol organizmi fiziologik xususiyatlari namoyon bo‘lishi, ular shaxsiy gigienaning o‘rni va ahamiyatiga aloqador bilimlarning sohibi bo‘lishidir. Jinsiy etilish jinsiy ehtiyojlar shakllanishiga olib keladi. Bu davrda ichki sekresiya bezlari faoliyati tufayli organizmda ikkilamchi belgilar yuzaga keladi. Biroq, bu yoshlar jinsiy yetuklikka erishdi degani emas. Ming afsuski, ko‘pgina ota-onalar yoshlarni ayniqsa, qizlarni balog‘atga etishi bilan oilaviy hayotga tayyor deb hisoblashadi va turmushga berishadi. Natijada erta turmush qurish oqibatida bugungi kunda homilador ayollarda 100% kamqonlik, turli ekstragenital kasalliklarning ko‘payishi, homilasining yaxshi rivojlanmaganligi, qayta farzand ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘lish holatlari ko‘plab uchramoqda. Yoshlarni nikohga etukligi deyilganda uning faqat fiziologik jihatdan rivojlanishini nazarda tutish noto‘g‘ri, bundan tashqari yoshlar jinsiy hayot psixogigienasi borasida ham zarur ilmiy psixologik bilimlarga, to‘g‘ri tasavvurlarga, ega bo‘lishi lozim. Afsuski, bugungi kunda ota-onalar tomonidan yoshlarga jinsiy tarbiya berish ishlarining ahamiyati butunlay kamsitib kelinmoqda.

Yoshlarni psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash va faoliyatning samarali tashkil etilishi bir qancha ijtimoiy muammolarning ijobiy hal etilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi:

- jamiyatning ijtimoiy ma’naviy jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi;

- jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining yuqori bosqichga ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi;

-mustahkam oilalarni shakllantirish, ularda sog'lom psixologik muhitni qaror toptirish, oila tarbiyasini samarali tashkil etish, farzandlar tarbiyasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishish, oilaviy mojaro, ajrimlarning oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nikohga yetuklikning ikkinchi talabi fuqarolik va huquqiy yetuklik bo'lib, bu odamning balog'atga etish yoshi bilan huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. o'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda "Oila kodeksi"da yigitlar va qizlar uchun nikoh yoshi 18 yosh deb belgilangan. Bu davrda ular Konstitusiyada belgilangan barcha huquq va majburiyatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lishadi. Huquqiy madaniyat va yetuklik avvalo oila va nikoh borasidagi mavjud qonunlarni bilish, oila qonunchiligidagi eng muhim normalarga ongli munosabat tufayli turmush o'rtog'i, farzandlari, jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarni his etish va ularga itoat etishga hozirlikni nazarda tutadi.

Nikohga yetuklikning uchinchi talabi kasb-hunar va ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik hisoblanadi. Kasb-hunar egallash ancha murakkab tushuncha bo'lib, uning murakkabligi shundaki, u ma'lum bir o'quv yurtini, o'quv kurslarini bitirish, Yani ma'lum bir ish turini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Ota-bobolarimiz oldingi davrlarda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik sir-asrorlarini puxta egallashgan. o'sha davrlardagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilmagan. 3-4 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshda o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini uddalay oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigan bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib oilani iqtisodiy jihatdan ta'minlay olgan. Bugungi kunda esa yoshlarimizni kasb-hunar egasi bolib yetilishi bir oz surilgan. Ba'zi bir kasblar bo'yicha 22-25 yoshlarda kasb-hunar etukligiga erishish mumkin bo'lsa, boshqalarda 28- 30 yoshlarda bunga erishmoqdalar. Natijada, bugungi kunda vaqtli turmush qurgan yoshlarimiz oilani iqtisodiy jihatdan mustaqil ravishda ta'minlay olmayaptilar.

Shu bilan birga shaxslararo munosabatlarga ruhan tayyorlik ham o‘ta muhim masala hisoblanadi. Chunki, oilaviy hayotda amalga oshiriladigan ko‘plab vazifalar va mas’uliyatlar orasida muomala odobining bo‘lishi va yangi qarindoshlar bilan yangi rollarni bajarish borasidagi hamkorlik qilishga ruhiy tayyorgarlik o‘zgacha madaniyat, aqliy salohiyatni talab etadi. Chunki, oila o‘ziga xos kichik guruh bo‘lib, undagi o‘zaro muomala va munosabatlarning uyg‘unligi oilaviy baxtning muhim kalitidir. To‘g‘ri, avlodlararo ziddiyatlar bor narsa. Masalan, kattalar o‘zlari yoshliklarida qadrlagan narsalarni ularning nazarida yoshlar qadrlamayotganday tuyulaveradi, yoshlar hayotga yengilroq qarayotganday, udumlarni mensimayotganday, oilaviy masalalarga bepisandday tuyuladi. Shunday paytlarda kattalarning biroz bag‘rikeng va toqatliroq bo‘lishi, yoshlarning esa bosiqroq va farosatliroq bo‘lishlari muammolarni echimini ta’minlaydi. Shunday qilib, nikohga ijtimoiy jihatdan yetuklik insonni o‘zi yashayotgan jamiyat me’yorlari, nikohning jamiyat rivojidadagi o‘rnini, inson hayotidagi turg‘un roli va mohiyatini bilgan holda turmush qurishga hamda otaonalik rollariga ruhan etilganligini nazarda tutadi.

Nikohga yetuklikning to‘rtinchi talabi axloqiy yetuklik bo‘lib, bu borada fahrlansak arziydigan jihatlarning mavjud. Yoshlarga axloqiy tarbiya Qur’oni karim, hadislar orqali, pandnoma, nasihatnoma, hikmatnoma tarzida juda erta singdirib boriladi. Avvalo, insonda muayyan axloqiy fazilatlar bo‘lmog‘i darkor, yani, oila quraman, turmushga chiqaman deyish shaxsning bo‘lg‘usi turmush o‘rtog‘i, bo‘lajak farzandlari, yangi qarindosh-urug‘lari oldidagi yangi mas’uliyatlarni bo‘yniga olishni taqazo etadi. Ushbu mas’uliyatlar va ulardan kelib chiqadigan majburiyatlar hayotda yangi rollarni bajarishga hozirlikni nazarda tutadi, yani, nikoh uyi ostonasida “kelin” yoki “kuyov” rovida turgan inson endi “rafiqa”, “er”, “ona”, “ota” kabi yangi rollar mas’uliyatini his etishiga to‘g‘ri keladi. Bu mas’uliyat esa odamdagi qator axloqiy sifatlar yuksak madaniyat, bag‘rikenglik, sabr-matnat, muloyimlik, mehribonlik, muomala madaniyati, shirinso‘zlik, mulozamatlilik, mehnatsevarlik, halollik, odillik, to‘g‘riso‘zlik, samimiyat kabi fazilatlarining namoyon bo‘lishini taqazo etadi. Chunki, bizda inson nikohga kirgach, cho‘lda yoki sahroda yashamaydi, u oddiy insoniy munosabatlar mujassam bo‘lgan

jamoada, jamiyatda yashaydi. U nafaqat o'z oilasi a'zolari davrasida, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar orasida ham o'zidagi ijobiy fazilatlarni ko'rsata olishi kerak.

Psixologik yetuklik boshqa odamlarning xohish istaklari, kechinmalarini tushunish bilan ham ma'lum darajada bog'liq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida muloqotning, hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilishiga, oilada turli guruhlarda garmonik munosabatlarni o'rganilishiga imkon beradi. Psixologik yetuklikning asosiy xususiyati yoshlarning turli toifa, turli yoshdagi odamlar bilan o'rinli munosabatda bo'la olishi, turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligi, boshqa shaxslar bilan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlilik, g'am-tashvishga sherik bo'la olish, o'zaro yordam kabilar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

Turmush o'rtog'i va oiladagi yaqinlarga, birinchi navbatda farzandlarga nisbatan fidoiylilik, sevgan insonining ko'ngliga yo'l topish va unga qarab ish tutishni talab etadi. Psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyorgarlik o'zgalarni tushunish, uning o'rniga o'zini qo'yib ko'ra olish, qalbiga yo'l topishni taqozo etadi. SHu ma'noda nikoh shunday psixoterapevtik hususiyatga egaki, u ikki sevishgan qalblarni bir-biriga yaqinlashtiribgina qolmay, ularning har-birini dardu-xasrati, quvonchu-shodligi bilan hamohang tarzda yashashga o'rgatadi. Shu sababli ham nikoh salomatlikni saqlovchi va inson umrini uzaytiruvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

Nikohga yetuklikning oltinchi talabi xususiyati pedagogik yetuklik bo'lib, umuman oilaning tarbiyalovchilik roli, jumladan, farzand tarbiyasi masalalaridagi bilimdonlikni, oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi va bunda ota-onaning tarbiyalovchi missiyasi nimada ekanligi, ota-onalikning tarbiyalovchilik saviyasini oshirish yo'llari to'g'risida aniq bilim va tasavvurlarni nazarda tutadi.

Xulasa o'rnida oila qurayotgan yoshlarga oila qurishdan avval yoshlar oilaviy hayotga jinsiy, fuqarolik va huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va ahloqiy, tarbiyaviy, psixologik jihatdan ma'lum bir yetuklik darajasiga erishishlari kerakligini, yoshlarni oila qurishdan aniq bir maqsadi, ya'ni nikoh qurish motivi bo'lishi lozimligini inobatga olishlarini maslahat beramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 820-son qarori.
2. Usmanova Maxfuza. Bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. *Maktabgacha ta'lim jurnali*, 3(Preschool education journal). (2021). Retrieved from <https://matinfo.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3973>
3. Usmanova Maxfuza. OILADA BOLANING KUN TARTIBINI TO'g'RI TASHKIL QILISH. *Maktabgacha ta'lim jurnali*, 1(1). (2021). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2712>
4. Usmanova Maxfuza 5-6 YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHDA OILAVIY MAROSIMLARNING o'RNI. *Maktabgacha ta'lim jurnali*(2021)., 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3873>
5. Toshtemirova, D. (2021). NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TALIMNI TASHKIL ETISHNING MAZMUN MOHIYATI. *Мaktabgacha таълим журнали*.
6. Toshtemirova, D. (2022). TARBIYACHINING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI o'RNI. *Мaktabgacha таълим журнали*, 1(Preschool education journal).